

IJSP

International Journal of
Scientific Pediatrics

2023. №3

Xalqaro Ilmiy
Pediatriya Jurnali



RETROSPECTIVE ANALYSIS OF THE DIAGNOSIS OF COMMUNITY-ACCOMPANY PNEUMONIA IN CHILDREN

Karimdzhanov I.A.¹  Rakhmanova L.K.² 

1. Tashkent Medical Academy, doctor of medical sciences, professor, Tashkent, Uzbekistan.

2. Tashkent Medical Academy, doctor of medical sciences, Tashkent, Uzbekistan.

OPEN ACCESS

IJSP

Correspondence

Karimdzhanov I.A., Tashkent Medical Academy, doctor of medical sciences, professor, Tashkent, Uzbekistan.

e-mail: dr.ilhomjon@mail.ru

Received: 07 March 2023

Revised: 13 March 2023

Accepted: 22 March 2023

Published: 31 March 2023

Funding source for publication:
Andijan state medical institute and
I-EDU GROUP LLC.

Publisher's Note: IJSP stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: © 2022 by the authors. Licensee IJSP, Andijan, Uzbekistan. This article is an open access article distributed under the terms and conditions of the Creative Commons Attribution (CC BY-NC-ND) license (<https://creativecommons.org/licenses/by-nc-nd/4.0/>).

Abstract. Diseases of the respiratory system remain one of the urgent problems in pediatrics in terms of morbidity rate and complications among children. The purpose of the study is to retrospectively analyze the diagnosis of pneumonia outside the hospital in children. Materials and styles. 2019-2022 in the pediatric pulmonology department of the TTA multidisciplinary clinic with the diagnosis of pneumonia outside the hospital. retrospective analysis of medical history of treated children aged 3-18 years. Results. It became known that today, for clinical practice, there are the following difficulties in differentiating bacterial pneumonia outside the hospital from the viral type, which require their own solution: that is, the use of antibiotics before bacterial inoculation; the difficulty of obtaining a reliable sample of sputum from the respiratory tract in young children; application of the molecular diagnosis method in a narrow scope. The development of diagnostic tests with a high level of specificity and sensitivity in determining the etiology of pneumonia in sick children is considered highly effective for the activities of medical care institutions.


Key words. child, pneumonia, retrospective analysis, bacterial inoculation.

Kirish. Ma'lumki, bolalardagi kasalxonadan tashqari pnevmoniya (KTP) butun dunyo bo'ylab bolalar o'limining asosiy sabablaridan biridir. Ushbu hol Covid-19 epidemiyasi davrida yana bir bor o'z tasdigini topdi va bunday vaziyatda pnevmoniya etiologiyasini erta aniqlash katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Jamoatchilik, ya'ni butun dunyo aholisi salomatligi nuqtai - nazaridan olib qaralganda, kasalxonadan tashqari pnevmonianing etiologiyasi qanchalik tez aniqlansa, bemorni davolashda antibiotiklardan maqsadli foydalanish, davo tarkibidan erta chiqarib tashlash va bemorni muolajaga erta moslashuviga yaqindan yordam beradi. Iqtisodiy jihatdan esa, antibiotiklarni moliyaviy guruhlarga ajratish hamda bolalar salomatligini saqlashda immunizatsiya dasturlari bajarilishini kuchaytirishga ustuvor ahamiyat berishni ta'minlaydi (1, 10, 12, 13).

Tadqiqot maqsadi. Bolalarda kasalxonadan tashqari pnevmoniya tashxisini retrospektiv tahlil qilish.

Material va uslublar. Kasalxonadan tashqari pnevmoniya tashxisi bilan TTA ko'p tarmoqli klinikasi bolalar pulmonoliyasi bo'limida 2019-2022yy. davolagan 3-18 yoshdagи bolalarning kasallik tarixini retrospektiv tahlil qildik.


Natijalar va muxokama. Retrospektiv tahlil natijalari kasallikning klinik kechishi bo'yicha bakterial, atipik bakterial va virusli pnevmoniyalar klinik simptomlarining (yotal, isitma, entikish) ko'pincha bir xil bo'lishini (100,0%; 86,0%; 88,0%) va shuning uchun ham turli xil etiologiyali pnevmoniyalarni ishonchli tarzda ajratib bo'lmasligini tasdiqladi ($P<0,001$) (1,2,3 rasmlar).



1-rasm. Pnevkokkli pnevmoniya.



2-rasm. Xlamidiyalı pnevmoniya.



3-rasm. Virusli pnevmoniya.

Adabiyot manbalariga mos ravishda bemorlar kasallik tarixi tahlilida pnevmoniyaning aynan bakterial etiologiyasini tasdiqlovchi yuqori harorat (98,0%), og'ir taxipnoe (84,0%), miyalgiya (67,0%), va local auskultativ topilmalar (90,0%) aniqlandi ($P<0,001$) [3, 4]. Bundan farqli o'laroq, bolada subfebril isitma (88,0%), burun oqishi (75,0%), xirillash (84,0%) va ikki tomonlama diffuz o'pka belgilari (89,0%) ham aniqlandiki, bu pnevmoniyaning virusli etiologiyasini tasdiqlaydi ($P<0,001-0,01$) [2,7,11].

Ma'lumki, bolalarda ko'pincha mikoplazmali pnevmoniyaga moyillik kuzatiladi va kasalxonadan tashqari pnevmoniya bilan og'rigan bolalarning 10-40%da yosh bolalarga nisbatan katta bolalarda ko'proq qayd qilinadi. Ko'krak qafasi auskultatsiyasida tarqoq, mahalliy va ekspirator xirillashlar aniqlanadi [5,6]. Tahlilimiz natijasiga ko'ra, bolalarda mikoplazmali pnevmoniyaning klinik ko'rinishini tasdiqlovchi uzoq davom etuvchi yuqori isitma (60,0%), qaltirash (58,0%), tomoq og'rig'i (63,0%) va yo'tal bilan birga «grippga o'xhash» sindrom (75,0%) aniqlandi ($P<0,001-0,01-0,05$).

Ma'lumki, pnevmoniyaning emprik kechishida noaniq klinik belgilari, yuqori isitma, ikki yoshgacha bo'lgan bolalada respirator distress-sindrom, timusnins funksional etishmovchiligi, antibiotiklarga past sezgirlik, asoratlar aniqlanishi va bemor umumiylar axvolining tez yomonlashuvi ko'krak qafasi rentgenografiyasiga ko'rsatma bo'lib hisoblanadi [6, 7, 8, 9, 14].

Bizning tekshiruvimizda lobar va segmentar shikastlanishlar asosan bakterial etiologiyali (55,0%), interstsitsial infiltratlar, peribronzial qalinlashuvlar esa asosan virusli (65,0%) va mikoplazmali (57,0%) pnevmoniyada aniqlandi ($P<0,001-0,01$) (4,5,6 rasmlar).



4-rasm. Stafilokokkli pnevmoniya.




5-rasm. Mikoplazmali nevmoniya.

Ta'kidlash joizki, o'pka ultratovush tekshiruvi plevral suyuqliklar va empiemani aniqlash uchun asosiy tashxis vositasi sifatida qollaniladi [6]. Bizning tekshiruvlarimizda virusli va bakterial pnevmoniyani farqlashda asosan klinik va laboratoriya parametrlaridan foydalanilgan.

Bolalarda pnevmoniyaning laborator tekshiruv usullari natijasida klinik amaliyot

uchun eng ko'p qo'llaniladigan biomarkerlarga leykotsitlar (L) soni va C-reaktiv oqsil (CRO) kirdi. Bu o'rinda qondagi prokalsitonin (PKT) biomarkerini aniqlash eng yangi usul bo'lib hisoblanadi. Biroq, bemorlarni davolashda ushbu biomarkerlarning hech birini alohida talqin qilish tavsiya etilmaydi. Gaptoglobin, metalloproteinaza-1, interleykin-19 va o'sma nekrozi faktori (TNF) to'qimalarining ingibitori kabi biomarkerlar mavjud bo'lib, ular ham asosan ilmiy tadqiqotlarda qo'llanib kelinmoqda.



6-rasm. Segmentar pnevmoniya.

Kattalarda balg'am namunasini Gram usuli bo'yicha bo'yash va ekish ko'pincha etiologik tashxisni aniqlashga yordam beradi. Biroq, yosh bolalardan sifatli namuna olish ko'pincha qiyin kechadi. Bu usulda namuna sifati epithelial hujayralar soni (<10/EC) va polimorfonuklear leykotsitlar (>25/EC) [10] soni bilan belgilanadi.

Balg'am chiqarish balgamni yotal bilan ajratishda yoki burun teshigi orqali aspiratsiya qilish yo'lil bilan sifatli balg'am namunasi olinadi. Induktsiya qilingan namunalarda mikroorganizmlarning aniqlanishi yaxshiroq bo'lsada, balg'am ishlab chiqarishni muntazam ravishda qollash mumkin emas. Bu bemor uchun muolajanining noqulayligi va nojo'ya ta'sirlarining mavjudligi sabablidir. Umuman olganda, yuqoridaq usullar yordamida olingen balg'am turi yuqori nafas yo'llarida simptomsiz mikroorganizmlarning kontaminatsiyasi tufayli kam darajada o'ziga xoslikka ega [10,11,12].

Serologik testlar natijalarini bemorlarni tekshiruv jarayonida muntazam qo'llash yuqori darajada ma'lumot bermaydi. Bu o'rinda mikoplazma infektsiyasi ham bundan mustasno emas, o'tkir infektsiya paytida IgG yoki IgM antigenlariga qon zardobidan bitta namuna olish o'ziga xoslik va sezgirlikka ega bo'lmaydi.

Pnevmoniya tashxisida qondagi antigenlarni aniqlash samarali qo'shimcha usul hisoblanadi. Bugungi kunda respirator sinsitial virus (RSV) antigennini tezkor aniqlash testi tez natijalar chiqishi va qulayligi tufayli molekulyar tashxis usullari bilan taqqoslanganda tibbiyotda keng qo'llaniladi. Bu usul ayniqsa, gripp epidemiyasi davrida samarali hisoblanadi.

Hozirgi kunda COVID-19 pandemiyasidan keyin xam tezkor antigenlarga tekshiruvlar keng qo'llanilmoqda. Bu usul bir vaqtning o'zida bir nechta mikroorganizmlarni bitta PCR reaksiyasida aniqlay oladi va oz miqdordagi DNK yoki RNKn replikatsiya qiladi, tirik organizmlarni talab qilmaydi va avvagi antibiotiklar qabul qilingani bilan bog'liq emas.

Ta'kidlash joizki, keying yillarda COVID-19 pandemiyasiga javoban olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning soni yildan-yilga ortib borayotgani kuzatilmoqda. Ko'plab tadqiqotlarda koronavirusning yangicha klinik ko'rinishi va tashxis usullari o'rganilmoqda. Bu o'rinda bolalardagi COVID-19 koronavirusining nazofaringit (55,3%) shaklida engil kechishi aniqlandi. Ba'zi holatlarda kasallikning to'liq simptomsiz (4,4%), o'rtacha og'irlilikda gipoksemiya yoki nafas olish etishmovchilgisiz pnevmonianing tipik simptomlari va belgilari bilan namoyon bo'lishi kuzatilmoqda [7, 12, 13].

Xulosalar. Shunday qilib, retrospektiv tahlil natijasida aniqlandiki, bugungi kunda klinik amaliyot uchun kasalxonadan tashqari bacterial pnevmoniyani virusli turidan farqlashda quyidagi o'z echimini talab etuvchi qiyinchiliklar mavjud: ya'ni antibiotiklarni bacterial ekmadan oldin qo'llash; kichik yoshdagи bolalarda nafas olish yollaridan balgamning ishonchli namunasini olishning qiyinligi; molekulyar tashxis usulining tor

doirada qo'llanilishi.

Bemor bolalarda pnevmoniya etiologiyasini aniqlashda yuqori darajada o'ziga xoslik va sezuvchanlikka ega bo'lgan tashxis testlarini ishlab chiqish tibbiy yordam muassasalari faoliyati uchun yuqori samara bo`lib hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. United Nations Children's Fund. 2020. Pneumonia. Available at: <https://data.unicef.org/topic/childhealth/pneumonia/>
2. Chan JY, Stern DA, Guerra S, Wright AL, Morgan WJ, Martinez FD. Pneumonia in childhood and impaired lung function in adults: a longitudinal study. *Pediatrics*. 2015; 135: 607–16. doi:10.1542/peds.2014-3060
3. Greenberg D, Leibovitz E. Community-acquired pneumonia in children: from diagnosis to treatment. *Chang Gung Medical Journal* 2005; 28(11): 746-52.
4. Leung AKC, Wong AHC, Hon KL. Community-acquired pneumonia in children. *Recent Patents on Inflammation and Allergy Drug Discovery* 2018; 12(2): 136-44. doi:10.2174/1872213X12666180621163821.
5. Vervloet LA, Marguet C, Camargos PA. Infection by *Mycoplasma pneumoniae* and its importance as an aetiological agent in childhood community-acquired pneumonias. *Brazilian Journal of Infectious Diseases* 2007; 11(5): 507-14. doi:1590/S141386702007000500012.
6. Karimdzhhanov I.A., Madrakhimov P. M. Diagnosis and treatment of community-acquired pneumonia (Literature review). *Journal of biomedicine and practice*. 2022; 3(7): 279-285.
7. Karimdzhhanov I.A. Genetic Predisposition To Out-Of-Hospital Pneumonia In Children: A Modern Interpretation Of The Problem. *Amer. Journal of medical sciences and pharmaceutical research*. 2021;3 (5): 51-57.
8. Youn YS, Lee KY. *Mycoplasma pneumoniae* pneumonia in children. *Korean Journal of Pediatrics* 2012; 55(2):42-7. <https://doi:10.3345/kjp.2012.55.2.42>.
9. Kashyap S, Sarkar M. *Mycoplasma pneumonia*: Clinical features and management. *Lung India* 2010; 27(2): 75-85. doi:10.4103/0970-2113.63611.
10. World Health Organization Pneumonia Vaccine Trial Investigators' Group. 2001. Standardisation of interpretation of chest radio-graphs for the diagnosis of pneumonia in children. Available at: <http://www.who.int/vaccines/documents/DocsPDF01/www616>.
11. Robles A, Gil AS, Pascual V, Calbo E, Iladot E, Benet S, et al. Viral vs bacterial community-acquired pneumonia: Radiologic features. *European Respiratory Journal*. 2011; 38: 2507.
12. Liyanage G, Adhikaram SGS, Chandrasiri SEHL, Aqiff M. Community acquired methicillin resistant *Staphylococcus aureus* soft tissue infection complicated by septicaemia, necrotising pneumonia, deep vein thrombosis and pyomyositis. *Sri Lanka Journal of Child Health* 2017; 46(1): 82. doi:10.4038/sljch.v46i1.8228
13. Li Y, Wang H, Wang F, Du H, Liu X, Chen P, et al. Comparison of hospitalised patients with pneumonia caused by COVID-19 and influenza A in children under 5 years. *International Journal of Infectious Diseases* 2020; 98: 80-3. doi:10.1016/j.ijid.2020.06.026.
14. Raxmanova L.K., Nizametdinov I.N., Muxamedova P.I. Bolalardagi bronxopnevmoniyada timusning klinik-immunologik xususiyatlari. *Sbornik nauch. trudov. Tashkent.-2003.-S.159-161.*

Jurnal tashkilotchisi:

Andijon davlat tibbiyot instituti va «I-EDU GROUP» MChJ.

**Xalqaro Ilmiy Pediatriya Jurnali
elektron jurnal****Nashr №3****MUNDARIJA**

№	Maqola nomi	Article title	Стр
1	KASALXONADAN TASHQARI PNEVMONIYA BILAN OG'IRIGAN BOLALARDA TUG'MA YURAK KASALLIGI KURSINING XUSUSIYATLARI <i>Lim M.V., Abdurakhimova A.F.</i>	FEATURES OF THE COURSE OF CONGENITAL HEART DEFECT IN CHILDREN WITH COMMUNITY-ACQUIRED PNEUMONIA <i>Lim M.V., Abdurakhimova A.F.</i>	05-08
2	SUSAYGAN QALQONSIMON BEZ FUNKSIYASIDA GLOMERULONEFRITLI KASAL BOLALARING KLINIK-FUNKTSIONAL XUSUSIYATLARI <i>Arzibekov A.G., Arzikulov A.SH., Arzibekova U.A.</i>	CLINICAL AND FUNCTIONAL CHARACTERISTICS OF SICK CHILDREN WITH GLOMERULONEFRITIS WITH REDUCED THYROID FUNCTION <i>Arzibekov A.G., Arzikulov A.SH., Arzibekova U.A.</i>	09-13
3	BOLALARDA KUYGANDAN KEYINGI YELKA VA TIRSAK BO'G'IMI CHANDIQLI KONTRAKTURALARINI BARTARAF ETISHDA ERKIN BUT TERI PLASTIKASINING AFZALLIKLARI <i>Ketmonov A.G., Yulchiev K.S., Abduraxmonov F.S.</i>	THE ADVANTAGES OF FREE FULL-LAYER SKIN GRAFTING IN THE ELIMINATION OF POST-BURN CONTRACTURES OF THE SHOULDER AND ELBOW JOINTS IN CHILDREN <i>Ketmonov A.G., Yulchiev K.S., Abduraxmonov F.S.</i>	14-17
4	GEMORRAGIK KASALLIGI BILAN TUG'ILGAN CHAQALOQLARNING NEVROLOGIK HOLATINING BUZILISHLARI <i>Zakirova B.I., Xusainova SH.K., Ochilova B.S.</i>	STATE OF NEUROLOGICAL SYMPTOMS IN NEWBORNS WITH HEMORRHAGIC DISEASE <i>Zakirova B.I., Khusainova SH.K., Ochilova B.S.</i>	18-21
5	BOLALAR VA O'SMIRLARDA MOZONLANISHNING BUZILISHI VA SHAXSIY XUSUSIYATLARNING PROGNOSTIK BELGILARINI ANIQLASH <i>Abdumuxtarova M.Z., Arziqulov A.SH.</i>	DETECTION OF PROGNOSTIC SIGNS OF DISORDERS OF ADAPTATION AND PERSONAL CHARACTERISTICS IN CHILDREN AND ADOLESCENTS WITH EARLY SIGNS OF DISADAPTATION <i>Abdumukhtarova M.Z., Arzikulov A.SH.</i>	22-26
6	ERTA TUG'ILGAN BOLALARING NEYRO-RUHIY RIVOJLANISHI KO'RSATKICHALARINI BAHOLASH <i>Nuritdinova G.T.</i>	ASSESSMENT OF INDICATORS OF NEURO-MENTAL DEVELOPMENT IN PREMATURE CHILDREN <i>Nuritdinova G.T.</i>	27-31
7	OLIMPIADA ZAKHIRASI SPORTCHILARINING TISH KASALLIKLARI VA UNING KAMAYТИРИШ YO'LLARI <i>Tulanov. D.SH., Shamirzaev X.D.</i>	DENTAL MORBIDITY OF ATHLETES OF THE OLYMPIC RESERVE AND WAYS OF ITS REDUCTION <i>Tulanov. D.SH., Shamirzaev KH.D.</i>	32-35
8	BOLALARDA O'TKIR VA RETSIDIVLANUVCHI OBSTRUKTIV BRONXITNING XAVF OMILLARI VA EPIDEMIOLOGIYASI <i>Turakulova H.E., Azizova N.D.</i>	RISK FACTORS AND EPIDEMIOLOGY OF ACUTE AND RECURRENT OBSTRUCTIVE BRONCHITIS IN CHILDREN <i>Turakulova H.E., Azizova N.D.</i>	36-40
9	BOLALARDA QOVUQ SIYDIK NAYI REFLYUKSINI DAVOLASHNING KECHKI NATIJALARINI BAHOLASH <i>Turaqulov Z.SH., Gafurov A.A., Tuychiyev G.U.</i>	COMPARATIVE ASSESSMENT OF LONG-TERM RESULTS OF TREATMENT OF VESICOURETERAL REFLUX IN CHILDREN <i>Turaqulov Z.SH., Gafurov A.A., Tuychiyev G.U.</i>	41-44
10	ANDIJON VILOYATIDA BOLALAR VA O'SMIRLAR TISH ANOMALIYALARI VA DEFORMATSIYALARINING TARQAYISHI <i>Shamirzaev. X.D., To'lanov D.SH.</i>	PREVALENCE OF DENTAL ANOMALIES AND DEFORMATIONS IN CHILDREN AND ADOLESCENTS IN ANDIJAN REGION <i>Shamirzaev. KH.D., Tulanov D.SH.</i>	45-48
11	BOLALARDA KASALXONADAN TASHQARI PNEVMONIYA TASHXISINGRETROSPEKTIV T AHLILI <i>Karimjanov I.A., Raxmanova L.K.</i>	RETROSPECTIVE ANALYSIS OF THE DIAGNOSIS OF COMMUNITY-ACCOMPANY PNEUMONIA IN CHILDREN <i>Karimdzhanov I.A., Rakhmanova L.K.</i>	49-52
12	ENDOMETRIOZLARNI IMMUNOGISTOKIMYOVIY O'ZGARISHLARI TAJSIFI <i>Karimjonov X.A., Israilov R.I., Mamataliev A.R.</i>	DESCRIPTION OF IMMUNOGISTOCHEMICAL CHANGES IN ENDOMETRIOSIS <i>Karimjonov K.A., Israilov R.I., Mamataliev A.R.</i>	53-59
13	BOLALARDA SURUNKALI BUYRAK KASALLIGI RIVOJLANISHINING IMMUNPATOGENETIK XUSUSIYATLARI <i>Raxmanova L.K., Karimjanov I.A.</i>	IMMUNOPATOGENETIC FEATURE OF THE DEVELOPMENT OF CHRONIC KIDNEY DISEASE IN CHILDREN <i>Rakhmanova L.K., Karimdzhanov I.A.</i>	60-66